

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI TASHKIL QILISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ametova Shaxida Ruzimovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi

3-maktabning Boshlangich ta'lif o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining vazifalariga to`htalib o`tgan. Dars rejalarini ishlab chiqishda, didaktik o`yinlardan foydalanish samaradorligi haqida ma'lumot berilgan hamda matematika darslarida o`quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini shakllantirishga xizmat qiladigan bazi o`yin turlari keltirilgan.

Kalit so`zlar: Boshlang'ich sinf, didaktika, ta'lif sifati, yosh avlod, o`yin turlari, raqobat o`yini, yo'qolgan son, mantiq, o`quvchi.

Bugungi mustaqil vatanimizning yosh avlodini aqli, ishbilarmon, o`ziga ishongan va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalashda maktab alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lif esa - bu bilim, ko`nikma va qobiliyatni shakllantirishning dastlabki bosqichi. Boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining vazifasi - shaxsni rivojlantirish, uning bilimga bo`lgan ishonchini mustahkamlash va o`qishga bo`lgan qiziqishni uyg'otish. Ilmiy-texnik taraqqivotning keskin sur'atta jadallahuvi ta'lif tizimiga katta maqsadlar va yangi vazifalarni yuklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol, aqli, yuqori fikrli va raqobatbardosh fuqarolar etib tarbiyalash jamiyatimizning eng dolzarb masalasidir. Bu har bir o'qituvchidan ijodiy ravishda yangilik kiritishni, astoydil, betinim va izchil mehnatni talab qiladi. Ma'lumki, ta'lifning asosi maktabdan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi qiziquvchan, qo'li bilan ushlab, ko'zi bilan ko`rishni yaxshi ko'radi.


Ularning diqqat-e'tibori beqaror bo`lganlikdan tezda bir tomonlama o'qitishdan charchaydi. Shu sababli, sifatlari ta'lif va o'quvchilarni ongli ravishda tarbiyalash uchun ta'lif mazmuni va usullarini yangilash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak. Bugungi kunda ta'lif sohasidagi asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga chuqur bilim berishdir.

Uning asosi o`rta maktablarda o`quv jarayonini takomillashtirish uchun ta'limga yangi texnologiyalarni joriy etishdir. O'quv jarayoniga yangi innovatsion yondashuvlarni kiritish o'quvchilarga ijodiy va mustaqil ravishda ishlashga imkon beradi, ularning bilimga bo`lgan qiziqishi va xohishini oshiradi. Barchamiz bilamizki, fanlarni o'qitishning eng samarali usuli o'qituvchining mahoratiga bog`liq bo`lgan metodlardan foydalangan holda darsni qiziqarli va samarali tashkil qilishdir. O'qituvchining mahorati yosh bolalarning tasavvurini bilim bilan yoritib berish va dunyoqarashini kengaytirishdir. Shu muosabat bilan o'qituvchilarga o`qitish

usullarini doimiy ravishda yangilab borish va yangi texnologiyalarni o`zlashtirish, ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo`lish vazifasi yuklatilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali o'yin bolasi hisoblanadi. Shuning uchun, dars rejalarini ishlab chiqishda, didaktik o'yinlardan foydalanish yahshi samara beradi. Ma'lumki, o'yin bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va hayol va qanot beradigan ajoyib vositasidir. O'yin davomida o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ba'zi psixologik fazilatlar beixtiyor, ko`p majburiyatlarsiz shakllana boshlaydi. Ular: fikrlash, e'tibor, xotira, tasavvur. Shu bilan birga, ish ko`nikmalari shakllanadi. Darsning sifati qiziqarli materialdan samarali foydalanish bilan ortadi; o`quvchilarning tafakkuri faollashadi. P.P. Balonskiy shunday dedi: «Aqliy faoliyat fikrning rivojlanishi uchun asosdir. O'yin aqliy faoliyatni rivojlanterish uchun asosdir». O'yin jarayoni o'quv jarayoni bilan chambarchas bog`liq bo`lishi kerak. Shuning uchun o'yinlarni darsning maqsadi va ularni o`tkazish maqsadiga qarab tanlash zarur.

Masalan: matematika darslarida: "Raqobat o`yini". Maqsadi: Bir xonali sonlarni qo'shish va ayirish, o`nlikdan o`tib qo'shish, ko`paytirish va bo'lish bilan bog'liq misollarni yechishga o`rgatish. Zarur vositalar: Har bir guruh uchun kichik yo`lovchilar, o'yinda ishtiroy etadigan o'quvchilar uchun raqam, qo'shimcha misollar yozilgan kartochkalar, plakat.



Mazmuni: O`qituvchi guruhni birnechta guruhga ajratib, darslikda berilgan misollarni kartochkalarga yoki o'yin doskasiga plakatga yozib qoyiladi. Musobaqada qatnashadigan o'quvchi oldin birinchi bosqichdan o'tib misollarini ishlab musobaqaga yo'llanma oladi. Musobaqaga yo'llanma olgan guruhning bolalari birinchi navbatda doskaga bitta-bitta chiqishadi: o`qituvchi musobaqa qoidalari bilan tanishtiradi. Ikki bola o`zlariga tegishli yo`lning bo'yidagi misollar yechib, oldinga siljiydi. Kim birinchi marraga yetib borsa g'oliblikni osha jamoa qo`lga kiritadi. Ushbu o'yinda ikkala bola ham raqobatlashadi. "Yo'qolgan son" Quyida bosh kataknинг o`mida qanday son bo`lishi kerak?

Agar rasmga qarab fikr yuritadigan bo`lsak, bir qatordagi va dioganallar bo`ylab joylashgan uchta sonlarning chekkalarida joylashgan sonlar yg'indisini ikkiga bo`ladigan bo`lsak markazda joylashgan son kelib chiqishi ma'lum bo`ladi.

Masalan:

$$(6+4):2=5; (3+7):2=5; (9+1):2=5; (8+?):2=5$$

Unda 8 soniga necha sonini qo'shib ikkiga bo`lsak 5 hosil bo`ladi? Ha albatta bu son ikki. Bunday topshiriqlar orqali o`quvchilarni nafaqat xisoblashga shu bilan birga fikrlashga, qaror qabul qilishga o`rgatib boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011
2. Avliyaqulov N.X., N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya «Tafakkur Bo'stoni>>> Toshkent-2012
3. Ziyonet.uz
4. Saviya.uz
5. TDPI.uz